

MAMLAKAZIMIZ MINTAQALARIDA QISHLOQ XO‘JALIK TARMOG‘INI BARQAROR RIVOJLANTIRISH HOLATI

Xo‘jamqulov Bekzod

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakazimiz mintaqalarida qishloq xo‘jalik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish zarurligi va holati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jalik, tarmoq, barqaror rivojlanish, qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, o‘lish sur‘ati.

Jahonda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoati tarmoqlarining xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. 2021-yilda qishloq xo‘jaligida 873 mln. nafarga yaqin kishi yoki jahon ishchi kuchining 27 foizi band bo‘lgan [1]. Bu borada jahon mamlakatlarida qishloq xo‘jalik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish eng ustuvor yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqdan olinadi yoki unda yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash hisobiga tayyorlanadi.

Qishloq xo‘jaligi aholi bandligini ta‘minlash, daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, soha iqtisodiy balki iqtisodiy jihatdan ham muhimlik kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini isloh qilish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, turli ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini yumshatish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib, mamlakazimiz mintaqalarida qishloq xo‘jalik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ushbu sohada islohotlar chuqurlashib, uning tarkibi chuqur isloh qilinmoqda. Bu esa ushbu sohaning haqiqiy holatini aks ettiradi va qator ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. Avvalo, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi hududlarda ishlab chiqarilib, o‘z natijasini ko‘rsatdi (1-jadval).

Mazkur 1-jadvalga asosan, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 2010-yilda 30856,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lsa-da, 2022-yilga kelib, 345191,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Hududlar bo‘yicha esa, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasida 990,4 va 13348,2 mlrd. so‘mga, Andijon viloyatida 2841,1 va 35587,4 mlrd. so‘mga, Buxoro viloyatida 2426,3 va 32867,5 mlrd. so‘mga, Jizzax viloyatida 1736,2 va 23239,2 mlrd. so‘mga, Qashqadaryo viloyatida 2753,7 va 32240,7 mlrd. so‘mga, Navoiy viloyatida 1349,7 va 15151,7 mlrd. so‘mga, Namangan viloyatida 1908,9 va 25157,7 mlrd. so‘mga, Samarqand viloyatida 5368,6 va 40428,1 mlrd. so‘mga, Surxondaryo viloyatida 2286,8 va 26755,7 mlrd. so‘mga, Sirdaryo viloyatida 1075,0 va 11523,3 mlrd. so‘mga, Toshkent viloyatida 3617,8 va 33010,7 mlrd. so‘mga, Farg‘ona viloyatida 2570,0 va 32737,0 mlrd. so‘mga, Xorazm viloyatida 1932,2 va 23144,5 mlrd.

so'mga teng bo'lgan. Toshkent shahrida esa ushbu mahsulot ishlab chiqarish umuman amalga oshirilmagan.

1-jadval

**Mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (jami),
mlrd. so'm [2]**

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.
	O'zbekiston Respublikasi	30856,7	55750,0	81794,3	115599,2	187425,6	250250,6	345191,7
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	990,4	1812,2	2558,7	3929,8	6562,9	9751,6	13348,2
2	Andijon viloyati	2841,1	5283,6	7992,4	11873,4	19606,3	26096,1	35587,4
3	Buxoro viloyati	2426,3	4489,6	6856,6	9812,2	17064,6	23876,0	32867,5
4	Jizzax viloyati	1736,2	3247,7	4772,0	6827,1	11448,2	16352,8	23239,2
5	Qashqadaryo viloyati	2753,7	5442,2	7689,1	10863,6	17206,5	23777,8	32240,7
6	Navoiy viloyati	1349,7	2484,7	3556,7	5034,7	8299,8	11309,7	15151,7
7	Namangan viloyati	1908,9	3552,1	5470,5	7973,7	12639,6	17913,1	25157,7
8	Samarqand viloyati	5368,6	7808,6	11747,6	17088,6	25658,0	32158,0	40428,1
9	Surxondaryo viloyati	2286,8	4825,7	6761,9	8737,2	15046,2	19424,0	26755,7
10	Sirdaryo viloyati	1075,0	2078,8	2868,0	4088,4	5654,3	8002,0	11523,3
11	Toshkent viloyati	3617,8	6484,4	9069,2	12034,2	18359,1	23875,1	33010,7
12	Farg'ona viloyati	2570,0	4788,9	7274,3	9824,6	17457,1	21455,5	32737,0
13	Xorazm viloyati	1932,2	3451,5	5177,3	7511,7	12423,0	16258,9	23144,5
14	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0

Ushbu yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan foizda tahlil qilindi. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati 2010-yilda 106,3 foizga teng bo'lsa-da, 2022-yilga kelib esa 103,6 foizga teng bo'lgan. Hududlar bo'yicha mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 121,3 (103,7) foizga, Andijon viloyatida 108,0 (102,3) foizga, Buxoro viloyatida 107,6 (103,9) foizga, Jizzax viloyatida 106,4 (101,8) foizga, Qashqadaryo viloyatida 107,0 (104,9) foizga, Navoiy viloyatida 105,9 (103,8) foizga, Namangan viloyatida 105,8 (105,7) foizga, Samarqand viloyatida 107,0 (102,3) foizga, Surxondaryo viloyatida 105,2 (101,7) foizga, Sirdaryo viloyatida 105,6 (103,9) foizga, Toshkent viloyatida 102,9 (104,2) foizga, Farg'ona viloyatida 106,1 (104,9) foizga, Xorazm viloyatida 102,5 (103,9) foizga teng bo'lgan. Toshkent shahrida o'zgarish kuztilmagan.

Shuningdek, ushbu sohaning muhim qismi bo'lgan dehqonchilik mahsuloti mamlakatimiz hududlarida turlicha hajmda ishlab chiqarildi (2-jadval).

Mazkur jadvalga asosan, O'zbekiston Respublikasida 2010-yilda 18118,9 mlrd.so'mlik va 2022-yilda 177962,7 mlrd.so'mlik dehqonchilik mahsuloti hajmi ishlab chiqarildi.

2-jadval

Dehqonchilik mahsuloti hajmi, mlrd. so'm [2]

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.
	O'zbekiston Respublikasi	18118,9	30592,3	43194,3	61754,8	98406,4	123858,8	177962,7
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	568,1	940,7	1164,2	1799,7	2992,1	4509,7	6486,6
2	Andijon viloyati	1886,1	3373	5059,1	7852,5	13106,5	16711,2	22373,9
3	Buxoro viloyati	1364,9	2286,9	3337,2	5123,3	8854,7	11646,6	16848,3
4	Jizzax viloyati	818,5	1359,1	1910,3	2714	4157,2	6317	9808,7
5	Qashqadaryo viloyati	1369,3	2457,9	3254,4	4538,3	6956,4	9236,3	13266,4
6	Navoiy viloyati	610,1	1026,3	1333,5	2024,1	3181,4	3989,1	5267,1
7	Namangan viloyati	1190,8	2094,1	3230,2	4579,8	7462,7	9818,6	14878,2
8	Samarqand viloyati	3577,2	4812,1	6974,1	10592,9	15035,3	17467,7	21472
9	Surxondaryo viloyati	1310,8	2910	3762,8	4707,3	8173,7	9696,2	13963,4
10	Sirdaryo viloyati	692,7	1320	1737,7	2484,7	3071,6	4424,4	6871,5
11	Toshkent viloyati	2162,6	3532,6	4687,3	5994,7	8870	10831	16283,3
12	Farg'ona viloyati	1572,4	2808,2	4238,1	5573,1	10654	11904,3	19766,6
13	Xorazm viloyati	995,4	1671,4	2505,4	3770,4	5890,8	7306,7	10676,7
14	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0

Ushbu ko'rsatkich mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 568,1 va 6486,6 mlrd.so'mlik, Andijon viloyatida 1886,1 va 22373,9 mlrd.so'mlik, Buxoro viloyatida 1364,9 va 16848,3 mlrd.so'mlik, Jizzax viloyatida 818,5 va 9808,7 mlrd.so'mlik, Qashqadaryo viloyatida 1369,3 va 13266,4 mlrd.so'mlik, Navoiy viloyatida 610,1 va 5267,1 mlrd.so'mlik, Namangan viloyatida 1190,8 va 14878,2 mlrd.so'mlik, Samarqand viloyatida 3577,2 va 21472 mlrd.so'mlik, Surxondaryo viloyatida 1310,8 va 13963,4 mlrd.so'mlik, Sirdaryo viloyatida 692,7 va 6871,5 mlrd.so'mlik, Toshkent viloyatida 2162,6 va 16283,3 mlrd.so'mlik, Farg'ona viloyatida 1572,4 va 19766,6 mlrd.so'mlik hamda Xorazm viloyatida 995,4 va 10676,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz mintaqalarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti hajmining o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan foizda hisoblandi. Natijada, yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti hajmining o'sish sur'ati mamlakatimizda 2010- va 2022-yilda 105,9 va 103,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa-da, ushbu yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida 130,9 va 103,7 foizni, Andijon viloyatida 108,4 va 101,1 foizni, Buxoro viloyatida 108,6 va 105,1 foizni, Jizzax viloyatida 106,2 va 102,4 foizni, Qashqadaryo viloyatida 106,9 va 107,4 foizni, Navoiy viloyatida 105,5 va 102,2 foizni, Namangan viloyatida 104,9 va 106,9 foizni, Samarqand viloyatida 107,4 va 100,4 foizni, Surxondaryo viloyatida 103,3 va 100,1 foizni, Sirdaryo viloyatida 104,9 va 104,7 foizni, Toshkent viloyatida 100,0 va 106,0 foizni, Farg'ona viloyatida 105,0 va 107,2 foizni, Xorazm viloyatida 101,0 va 103,8 foizni tashkil etdi.

Ulardan tashqari, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida barcha toifalardagi xo'jaliklarda donli ekinlar yetishtirilib, uning holati statistic tahlil qilindi. Shunga

asosan, barcha toifaladagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan donli ekinlar O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2010-yilda 7504,3 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa-da, 2023-yilga kelib esa, 8453,4 ming tonnani tashkil etgan. Hududlarda, xususan, mos ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 299,8; 317,4 ming tonnani, Andijon viloyatida 608,8; 710,7 ming tonnani, Buxoro viloyatida 620,1; 645,5 ming tonnani, Jizzax viloyatida 527,5; 712,1 ming tonnani, Qashqadaryo viloyatida 995,9; 840,0 ming tonnani, Navoiy viloyatida 247,2; 257,8 ming tonnani, Namangan viloyatida 492,4; 686,2 ming tonnani, Samarqand viloyatida 804,7; 879,9 ming tonnani, Surxondaryo viloyatida 629,7; 754,2 ming tonnani, Sirdaryo viloyatida 461,2; 559,1 ming tonnani, Toshkent viloyatida 723,5; 651,0 ming tonnani, Farg‘ona viloyatida 759,6; 943,9 ming tonnani hamda Xorazm viloyatida 333,9; 495,5 ming tonnani tashkil etgan. Toshkent shahrida esa 2023-yilda 0,1 ming tonnani tashkil etgan.

Qishloq xo‘jaligining yana bir tarkibi chorvachilik sohasi hisoblanib, uning mahsuloti hajmi o‘zgarish tendensiyalariga ega bo‘ldi (3-jadval).

3-jadval

Chorvachilik mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m [3]

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2015-y.	2017-y.	2019-y.	2021-y.	2022-y.
	O‘zbekiston Respublikasi	12737,8	25157,7	38600	44175,6	64895,7	104378,3	151285,1	167229
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	422,3	871,5	1394,5	1713,8	2524,6	4260,2	6111,4	6861,6
2	Andijon viloyati	955	1910,6	2933,3	3359,8	4774,1	7760,4	11635,3	13213,5
3	Buxoro viloyati	1061,4	2202,7	3519,4	3924,8	5889,3	9719,1	14429	16019,2
4	Jizzax viloyati	917,7	1888,6	2861,7	3293,4	5062,8	8213,3	12708,5	13430,5
5	Qashqadaryo viloyati	1384,4	2984,3	4434,7	5041,5	7755,6	11955	16943,6	18974,3
6	Navoiy viloyati	739,6	1458,4	2223,2	2494,4	3701,2	6025,7	9584	9884,6
7	Namangan viloyati	718,1	1458	2240,3	2705,7	4016,8	6488,4	9243,8	10279,5
8	Samarqand viloyati	1791,4	2996,5	4773,5	5350,6	7744,1	12934,1	17625,8	18956,1
9	Surxondaryo viloyati	976	1915,7	2999,1	3325,1	4797,3	8125,7	11244,4	12792,3
10	Sirdaryo viloyati	382,3	758,8	1130,3	1321,5	1957,2	3046,4	4188,5	4651,8
11	Toshkent viloyati	1455,2	2951,8	4381,9	4977,5	7483,5	10419,9	15572,9	16727,4
12	Farg‘ona viloyati	997,6	1980,7	3036,2	3586,3	4728,5	7847,9	11335,7	12970,4
13	Xorazm viloyati	936,8	1780,1	2671,9	3081,2	4460,7	7582,2	10662,2	12467,8
14	Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0	0	0

Mazkur 3-jadvalga asosan, O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan jami chorvachilik mahsuloti 2010-yilda 12737,8 mlrd. so‘mni va 2022-yilda 167229,0 so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich mos ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 422,3 va 6861,6 mlrd. so‘mni, Andijon viloyatida 955,0 va 13213,5 mlrd. so‘mni, Buxoro viloyatida 1061,4 va 16019,2 mlrd. so‘mni, Jizzax viloyatida 917,7 va 13430,5 mlrd. so‘mni, Qashqadaryo viloyatida 1384,4 va 18974,3 mlrd. so‘mni, Navoiy viloyatida 739,6 va 9884,6 mlrd. so‘mni, Namangan viloyatida 718,1 va 10279,5 mlrd. so‘mni, Samarqand viloyatida 1791,4 va 18956,1 mlrd. so‘mni, Surxondaryo viloyatida 976,0 va 12792,3 mlrd. so‘mni, Sirdaryo viloyatida 382,3 va 4651,8 mlrd. so‘mni, Toshkent viloyatida

1455,2 va 16727,4 mlrd. soʻmni, Fargʻona viloyatida 997,6 va 12970,4 mlrd. soʻmni hamda Xorazm viloyatida 936,8 va 12467,8 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

Mazkur yetishtirilgan chorvachilik mahsuloti hajmining oʻsish surʼati oʻtgan yilga nisbatan foizda hisoblandi. Unga asosan, mos holda keltirilgan koʻrsatkichning oʻsish surʼati Oʻzbekiston Respublikasida 106,9 va 103,3 foizga, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 108,4 va 103,7 foizga, Andijon viloyatida 107,1 va 104,3 foizga, Buxoro viloyatida 106,2 va 102,7 foizga, Jizzax viloyatida 106,7 va 101,5 foizga, Qashqadaryo viloyatida 107,0 va 103,3 foizga, Navoiy viloyatida 106,3 va 104,7 foizga, Namangan viloyatida 107,6 va 104,0 foizga, Samarqand viloyatida 106,4 va 104,7 foizga, Surxondaryo viloyatida 108,2 va 103,4 foizga, Sirdaryo viloyatida 106,9 va 102,9 foizga, Toshkent viloyatida 107,3 va 102,7 foizga, Fargʻona viloyatida 108,2 va 101,6 foizga hamda Xorazm viloyatida 104,4 va 103,9 foizga teng boʻlgan.

Xulosa shuki, mamlakazimiz mintaqalarida qishloq xoʻjalik tarmogʻi holati barqaror rivojlantirish imkoniga egaligi bilan ajralib turadi. Bu borada soha taraqqiyotiga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu holat bir qator koʻrsatkichlar bilan tavsiflanadi. Xususan, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsuloti hajmi va uning oʻsish surʼati, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi va uning oʻsish surʼati, qishloq xoʻjaligi tarmogʻining barcha toifalarida yetishtirilgan donli ekinlar hajmi, yetishtirilgan chorvachilik mahsuloti hajmi va uning oʻsish surʼati, hududlar kesimida yetishtirilgan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) hajmi va uning oʻsish surʼatlari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. <https://www.fao.org>
2. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

**TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING
USULLARI, OMILLARI VA VOSITALARI**

Yoʻldosheva Latofat Tolib qizi

“Ipak yoʻli” turizm va maʼdaniy meros

xalqaro universiteti doktoranti

08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm industriyasini davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor strategiyalari, vositalari va usullari, shuningdek, turizmni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash omillari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: murizm industriyasi subyektlari, huquqiy taʼminot vositalari, tashkiliy vositalar, ijtimoiy kafolat.

Turizm industriyasining davlat tomonidan tartibga solishning zarurati, eng avvalo, bozor munosabatlari va sharoitlarining muttasil ravishda oʻzgarib turishi bilan belgilanadi. Turizm bozorini tartibga solish mexanizmini koʻrib chiqqan